

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

XOJIYEV SHOHRUH SAIDJAPPAR O‘G‘LI

**YOSH XOKKEYCHILARNI HARAKAT TAYYORGARLIGINI
SHAKLLANTIRISHDA 3D TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH METODIKASI**

**13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi**

**pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Chirchiq - 2025

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Xojiyev Shohruh Saidjappar o‘g‘li

Yosh xokkeychilarni harakat tayyorgarligini shakllantirishda 3D texnologiyasini
qo‘llash metodikasi 3

Хожиев Шохрух Саиджаппар угли

Методика применения 3D-технологии в формировании двигательной
подготовки юных хоккеистов 29

Khojiev Shokhrukh Saidjappar ugli

Methodology of using 3D technology in developing motor training of young
hockey players 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works 59

O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA SPORT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH

JISMONIY TARBIYA VA SPORT ILMIIY TADQIQOTLAR INSTITUTI

XOJIYEV SHOHRUH SAIDJAPPAR O‘G‘LI

YOSH XOKKEYCHILARNI HARAKAT TAYYORGARLIGINI
SHAKLLANTIRISHDA 3D TEXNOLOGIYASINI QO‘LLASH METODIKASI

13.00.04 - Jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, sog‘lomlashtirish va adaptiv
jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi

pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Chirchiq - 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/Ped4645 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti veb-sahifasida (www.jtsu.uz) va “ZiyoNet” axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Tajibayev Soyib Samijonovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	Yarashev Komiljon Dexkanovich pedagogika fanlari doktori (DSc), professor Akramov Jasur Anvarovich pedagogika fanlari nomzodi, professor
Yetakchi tashkilot:	Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025- yil “____” _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy. Tel.: (0-370)-717-17-79, 717-27-27, faks: (0-370)-717-17-76, veb-sayt: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti, E bino, 3-qavat, 309-auditoriya).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko‘chasi 19-uy). Tel.: (0-370)-717-17-79, faks: (0-370)-717-17-76).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “____”_kuni tarqatildi.

(2025-yil “____” _____dagi _____raqamli reyestr bayonnomasi)

R.M.Matkarimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d.(DSc), professor

M.A.Ibragimov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD), professor

A.N.Shopulatov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash qoshidagi, Ilmiy seminar
raisi, p.f.d. (DSc), professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda bugungi kunda ko‘plab mamlakatlarda xokkey nafaqat professional sport turi, balki keng omma orasida mashhur bo‘lgan dam olish vositasi sifatida e’tirof etilmoqda. Xalqaro xokkey federatsiyasi tomonidan uyushtiriladigan yirik musobaqalar, xususan, Jahon chempionati hamda xokkey bo‘yicha mintaqaviy birinchiliklar, ushbu sportning nufuzini belgilab bermoqda. So‘nggi yillarda xokkey sportida yangi texnologiyalar, virtual reallik (VR) asosidagi mashg‘ulot tizimlari, harakatni tahlil qiluvchi 3D kamera tizimlari, shuningdek, tezlik, reaksiya va texnikani shakllantiruvchi zamonaviy sensorli moslamalar xokkeychilarning tayyorgarligini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Ko‘plab mamlakatlarda xokkeyni rivojlantirishga qaratilgan maxsus milliy dasturlar ishlab chiqilgan bo‘lib, bu sohaning o‘sishi texnologik yangiliklar, sport infratuzilmasining kengayishi, ommaviy axborot vositalari orqali translyatsiyalar va yosh avlodning yuqori qiziqishi bilan izohlanmoqda. Sport maktablari va akademiyalarda shug‘ullanayotgan yosh xokkeychilarning mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish, ularning jismoniy va texnik tayyorgarlik darajasini oshirish ushbu sport sohasida ustuvor yo‘nalishlardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, xokkeychilarning texnik tayyorgarligini mustahkamlashda zamonaviy texnologiyalaridan samarali foydalanish juda ahamiyatli bo‘lib bormoqda. Mashg‘ulotlarini sportchining individualligidan kelib chiqib tashkil qilish, natijalarni muntazam baholash va monitoring qilish bugungi kunda sport biomexanikasi hamda psixologiyasi kabi fan sohalarida olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning asosiy yo‘nalishlariga aylanmoqda. Ayniqsa, sport biomexanikasi yo‘nalishida olib borilayotgan tadqiqotlar xokkeychilarning muz ustida harakatlanish texnikasini chuqur tahlil qilish va ularni mukammallashtirishga xizmat qilmoqda. 3D harakat tahlili kameralari va inertsiyal sensor qurilmalar kabi portativ uskunalar yordamida sportchi harakatlarining aniqligi va samaradorligi baholanmoqda. Hozirgi vaqtda boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi yosh xokkeychilarning harakat tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslangan metodikani ishlab chiqish hamda asosiy harakat elementlarini shakllantirishga qaratilgan mashg‘ulotlarni tizimli takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasini izchil rivojlantirish yo‘lida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Xokkey sport turi bo‘yicha terma jamoalar va sport klublari uchun sport zaxirasini yaratish, iqtidorli sportchilarni saralash (seleksiya)ning raqamlashtirilgan tizimini joriy qilish, xokkey sport turi bo‘yicha malakali trenerlar, hakamlar va mutaxassislarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish”¹ vazifalarini amalga oshirish belgilangan. Zamonaviy xokkeyda texnik va taktik ko‘nikmalarga qo‘yilayotgan talablarning keskin ortib borayotgani sharoitida murabbiylar, mutaxassislar va sportchilarning tayyorgarlik jarayonini innovatsion yechimlar asosida chuqur tahlil qilishga xizmat qiluvchi raqamli vositalaridan foydalanish amaliyotining samarali usullarini topish dolzarb masalalardan hisoblanmoqda.

¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentyabrdagi PQ-334-son “Xokkey sport turini rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni, 2020-yil 4-fevraldagi PQ-4583-son “Qishki sport turlarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2022-yil 1-iyuldagi PQ-303-son “2026-yil Milan va Kortino (Italiya) shaharlarida bo‘lib o‘tadigan XXV-qishki Olimpiya va XIV-Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”, 2022-yil 3-noyabrdagi PQ-414-son “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda belgilangan sohada qator vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy-huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” doirasida amalga oshirilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Respublikamizning bir guruh olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlarda, qishki sport turlarini rivojlantirish va ommalashtirish, muz ustida xokkey mashg‘ulotlarini rejalashtirish, o‘quv-mashq bosqichida yosh xokkeychilarni tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish va qishki sport turlariga tayyorlashning metodologik asoslarini yaratish bo‘yicha ko‘p yillik ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu izlanishlarni S.R.Davletmuratov, G.R.Asatova., B.P.Rashidov, I.B.Jo‘rayev, S.V.Fedorova, S.Q.Nurmamatova va A.A.Karimov² kabi mahalliy olimlar olib borgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligiga a‘zo mamlakatlar olimlaridan Y.A. Budanova, V.M.Zatsiorskiy, I.V.Melnikov, A.A.Xannikov, Y.V.Kostyuchenko, V.T.Vardanyan, V.V.Kozin, I.M.Solovyov, K.Gromov, L.Orlovlarning³ ko‘p yillik tayyorgarlik bosqichlarida xokkeychilarni raqamli texnologiyalar orqali bazaviy tayyorgarliklarini oshirishga e‘tibor qaratishgan. Sportchilarni muz maydonida tezlik va muvozanat, mo‘ljal ola bilish uchun zarur bo‘lgan harakatlarni shakllantirishga qaratilgan tayyorgarlikni yaxshilash, texnik harakatlarga o‘rgatishni musobaqa jarayoniga yaqinlashtirgan holda amaliyotda qo‘llash bo‘yicha turli tavsiyalar

²Давлетмуратов С.Р., Асатова Г.Р., Каримов А.А., Хожиев Ш.С., Жураев И.Б., «Зимние виды спорта» // Учебник. TASHKENT “O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI” NMIU, 2021.-С.503-537.; Федорова С.В. Теория и методика фигурного катания/ С.В. Федорова. Учебное пособие- Ташкент, «O‘ZKITOBSAVDONASHRIYOTI» MIU, 2022.-С.35-48.; Nurmamatova S. “11-12-yoshli figurali uchuvchilarda koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish samaradorligi” dis. PhD. 2024.-В.5-22. Karimov A. “O‘quv-mashq bosqichida yosh xokkeychilarni tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish” dis. PhD. 2025.-В.5-29.

³Буданова Е.А Основы биомеханического анализа спортивных движений на примере оценки техники бега с барьерами. Вестник КемГУ, Физкультура и спорт № 4, 2008 г 1ст.; Zatsiorsky, V. M., & Kraemer, W. J. (Eds.). (2016). Science and practice of strength training. Human Kinetics.; Мельников И. В., Ханников А. А. Хоккей. Самый полный самоучитель. Лучшая книга для начинающих / - Минск: Харвест, 2016. - 66 с.; Костюченко, Е. В. (2018). Биомеханический анализ физических упражнений в спорте. Инновационные технологии в спорте, 5(1), С. 56-60.; Вardanyan В.Т., Козин В.В., Проблемы интенсификации тренировочного процесса в подготовке хоккеистов начального этапа обучения. Современные проблемы науки и образования. - 2019. - №5, С. 84-90.; Solovyov I. M. (2022). Virtual and augmented reality in sports education. Modern Technologies in Science and Education, (2), С. 114-119.; Громов К.К., Орлов Л.Л. Цифровизация образования и спорта: перспективы и вызовы. — СПб.: Издательство СПбГУ, 2022.-С. 68-73.

berishgan.

Xorijiy olimlar tomonidan xokkeychilarning mashg'ulot va musobaqa jarayonini tahlil qilish va olingan natijalar bo'yicha sportchilarga individual mashg'ulot dasturlarini ishlab chiqish, harakatlarga o'rgatishda texnik jixatidan ahamiyatni hisobga olgan holda vosita va usullar to'g'risida P.Larsson, K.Fasting, S.Tsiakos, V.Barkoukis, V.Gourgoulis, P.M.McGinnis, D.Knudson, H.Choi, S.Ohlar⁴ tomonidan uzoq yillik ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Ilmiy-uslubiy tahlil natijalariga ko'ra, xokkeychilarning tayyorgarlik jarayonida texnik, jismoniy tayyorlashning muhim tomonlari yuzasidan izlanishlar olib borilgan bo'lsada, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarni 2D, 3D va taqlidiy VR uskunalaridan foydalanib maxsus harakat faoliyati hamda texnik tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot va musobaqa jarayonida zamonaviy trenajyor uskunalaridan foydalanish, ma'lum bir dasturiy o'yinlar asosida mashqlarni tayyorgarlik bosqichlariga mos ravishda tanlash va taqsimlash holatlari yetarlicha o'rganilmagan va maxsus harakat tayyorgarliklarni rivojlantirishga yuqori samarada ta'sir ko'rsatuvchi vositalar bo'yicha ilmiy tavsiyalar to'liq yoritib berilmaganligi dissertatsiya mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Jismoniy tarbiya, sport va ilmiy tadqiqotlar institutining 2021-2025 yillarga mo'ljallangan ilmiy-tadqiqot ishlari konsepsiyasi va istiqbol rejasidagi I/IV "Sport turlarini (olimpiya, paraolimpiya, noolimpiya va milliy sport turlari) rivojlantirishga xizmat qiladigan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish" mavzusidagi ilmiy-tadqiqotlar doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 3D texnologiyalaridan foydalanish orqali boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarning harakat tayyorgarligini oshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

3D texnologiyasi orqali boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarning asosiy turish texnikasi biomexanik parametrlarini aniqlash;

2D tahlil dasturi yordamida 9-10 yoshli xokkeychilarning qisqa masofaga start tezligini belgilovchi ko'rsatkichlarni aniqlash;

qayrilish texnikasiga ta'sir qiluvchi biomexanik parametrlarni aniqlash va VR-blok hamda React-Light texnologiyalari asosida yosh xokkeychilar uchun mashqlar kompleksini tuzish;

9-10 yoshli xokkeychilarning diagonal bo'ylab sakrash dinamikasini oshirish uchun kuch va chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulot dasturini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida xokkey sport turiga ixtisoslashtirilgan klublarning

⁴Larsson, P., & Fasting, K. (2006). Video analysis: An important tool for the coach and the athlete. *Scandinavian Journal of Medicine & Science in Sports*, 16(2), pp. 77- 82.; Tsiakos, S., Barkoukis, V., & Gourgoulis, V. (2011). Effectiveness of video-based instruction on ice-hockey performance. *International Journal of Performance Analysis in Sport*, 11(3), pp. 418-430; McGinnis, P. M. (2013). *Biomechanics of sport and exercise*. Human Kinetics pp. 56-62.; Knudson, D. (2018). *Biomechanical Principles of Sport Technique*. London: Routledge, pp. 121-125.; Choi, H., & Oh, S. (2019). The Effect of Video Analysis on Ice Hockey Skating Performance. *Journal of Physical Education and Sport*, 19(2), pp. 491-496.

9-10 yoshli yoshli xokkeychilarning mashg'ulot jarayoni olingan.

Tadqiqot predmetini boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi 9-10 yoshli yosh xokkeychilarning harakat tayyorgarligini shakllantirishga qaratilgan 3D-texnologiyalari va maxsus mashqlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, pedagogik nazorat, anketa so'rovnoma, pedagogik testlash, biomexanik tahlil (3D), pedagogik tajriba va matematik-statistik usulblardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarning muz ustida asosiy turish texnikasini o'rgatish maqsadida asosiy biomexanik parametrlar ko'rsatkichlari (tizzalarning egilish, tana holati aniqligi, to'piq bo'g'ini) burchak darajasini 3D texnologiyasi orqali aniqlash hisobiga sirg'alish harakatlarni bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

9-10 yoshli xokkeychining maydonda joylashuv nuqtasidan tezlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida qisqa masofaga startdan chiqish, harakatni ta'minlovchi korpus burchaklari hamda tana massasining taqsimlanishini 2D tahlil dasturi yordamida aniqlagan holda maxsus mashqlar kompleksini qo'llash hisobiga masofani minimal vaqtda bosib o'tish samaradorligi oshirilgan;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarda yo'nalishni o'zgartirish texnikasini oshirish maqsadida qayrilishlar elementni bajarishga ta'sir qiluvchi asosiy biomexanik parametrlarni aniqlagan holda VR-blok, React-Light texnologiyalaridan 6 haftalik dasturda foydalanish hisobiga himoyaviy qayrilish texnikasini bajarish imkoniyatlari kengaytirilgan;

9-10 yoshli xokkeychilarning depsinishda oyoq diagonal bo'ylab sakrash dinamikasini oshirish uchun kuch, chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar mazmuni, takrorlanishlar soni, dam olish intervallarini ratsion taqsimlagan dasturidan mashg'ulotning asosiy qismida foydalanish hisobiga belgilangan masofaga sakrash samaradorligi yaxshilangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

yosh xokkeychilarni obyektiv baholash uchun laboratoriya 3D tahlili, VR-sensomotorika va sensor qurilmali muz vazifalarini birlashtirgan standart ishlab chiqilgan;

xokkey klublari murabbiylari uchun 3D-hisobotlar, VR-mashg'ulotlar va React-Light mashqlaridan foydalanish bo'yicha uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

joriy etilgan tizim umumiy mashg'ulot hajmini oshirmasdan, faqat maqsadli raqamli korreksiya hisobiga tezkorlik, koordinatsiya va texnika barqarorligini oshirishi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Qo'llanilgan yondashuv, qishki sport turlari nazariyasi va uslubiyati sohasidagi mahalliy hamda chet el olimlarining fikr-mulohazalariga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi o'zaro bir-birini to'ldirib boruvchi tadqiqot uslublarining qo'llanilganligi, tahlil va tadqiqot vazifasining son va sifat jihatdan ta'minlanganligi, tajriba sinov ishlarining reprezentivligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlab chiqilganligi natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan

tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarini ilmiy ahamiyati, xokkeychilarning sport mashg'ulotlari, jumladan, 3D kinematik tahlil, VR simulyatsiya va muz mashg'ulotlaridan foydalangan holda asosiy harakat ko'nikmalarini (asosiy turish holati, start, sakrash, qayrilish) shakllantirishning yaxlit modeli asoslangan metodika "Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida mashg'ulotlarni tashkil etish" (xokkey) fani mazmunini boyitish hamda kengaytirishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini amaliy ahamiyati, boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida xokkeychilarning harakat va texnik tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati, zamonaviy texnologiyalardan "Optitrack" 3D kameralari, 3D MA va Kinovea dasturiy ta'minotlari, React-Light qurilmalaridan usullarni takomillashtirish, mashg'ulotlar jarayonida amalga oshirish shartlarini ishlab chiqish hamda samarali qo'llanilishini baholash bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 3D texnologiyalaridan foydalanish orqali boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarning harakat tayyorgarligini oshirish bo'yicha olingan natijalar asosida:

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarning muz ustida asosiy turish texnikasini o'rgatish maqsadida asosiy biomexanik parametrlar ko'rsatkichlari (tizzalarning egilish, tana holati aniqligi, to'piq bo'g'ini) burchak darajasini 3D texnologiyasi orqali aniqlash bo'yicha taklif va tavsiyalar "Snejniy Bars" xokkey klubi" xokkeychilari mashg'ulot jarayoniga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 6-maydagi 02-16/4755-son ma'lumotnomasi). Natijada, asosiy turish holati bo'yicha muzdagi natijalar 18% ga va 3D laboratoriyadagi natijalar 39% ga yaxshilanishgan;

9-10 yoshli xokkeychining maydonda joylashuv nuqtasidan tezlanish ko'rsatkichlarini yaxshilash maqsadida qisqa masofaga startdan chiqish, harakatni ta'minlovchi korpus burchaklari hamda tana massasining taqsimlanishini 2D tahlil dasturi yordamida aniqlagan holda maxsus mashqlar kompleksidan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar "Snejniy Bars" xokkey klubi xokkeychilari mashg'ulot jarayoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 6-maydagi 02-16/4755-son ma'lumotnomasi). Natijada, 20 m masofani bosib o'tish vaqti (nisbiy o'sish) 6,2% ga oshgan;

boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarda yo'nalishni o'zgartirish texnikasini oshirish maqsadida qayrilishlar elementni bajarishga ta'sir qiluvchi asosiy biomexanik parametrlarni aniqlagan holda VR-blok, React-Light texnologiyalaridan 6 haftalik dasturda foydalanish bo'yicha takliflar "Snejniy Bars" xokkey klubi xokkeychilari mashg'ulot jarayoniga tatbiq qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 6-maydagi 02-16/4755-son ma'lumotnomasi). Natijada, xokkeychilarning himoyaviy qayrilishlaridagi nisbiy o'sish ulushi 19% ga o'sgan;

9-10 yoshli xokkeychilarning depsinishda oyoq diagonal bo'ylab sakrash dinamikasini oshirish uchun kuch, chaqqonlik sifatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar mazmuni, takrorlanishlar soni, dam olish intervallarini ratsion taqsimlagan dasturidan mashg'ulotning asosiy qismida foydalanish bo'yicha tavsiyalar "Snejniy Bars" xokkey klubi xokkeychilari mashg'ulot jarayoniga tatbiq qilingan (O'zbekiston

Respublikasi Sport vazirligining 2025-yil 6-maydagi 02-16/4755-son ma'lumotnomasi). Natijada, yosh xokkeychilarning diagonal sakrash uzunligi 8% ga yaxshilangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 2 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy - uslubiy ishlar, jumladan 1 ta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola (2 ta respublika va 1 ta xorijiy ilmiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, to'rtta bob, 113 sahifali matn, 11 ta rasm, 26 ta jadval, xulosalar, amaliy tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalardan tashkil topgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya ishi **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti, tadqiqot metodlari, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Yosh sportchilarni harakat tayyorgarligini shakllantirishda 3D texnologiyalarining o'rni”** deb nomlangan birinchi bobida, sport takomillashuvining turli bosqichlarida xokkeychilarining texnik va harakat tayyorgarligini tahlil qilish, xokkey sport turiga tayyorlashda mashg'ulot vosita va usullarini qo'llash xususiyatlari, xokkey sportida texnik tayyorgarlikka zamonaviy yondashuvlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Qator mutaxassislarning fikriga ko'ra biomexanik tahlil sportchining harakatni bajarish texnikasini chuqur o'rganishdan boshlanadi. So'ngra maxsus asbob-uskunalar, masalan, yuqori tezlik kameralari, harakat va bosim datchiklari, burchak va kuch o'lchagichlari yordamida turli xil testlar va sinamalar o'tkaziladi. Keyinchalik ushbu ma'lumotlar maxsus dasturlar yordamida tahlil qilinadi va qayta ishlanadi, bu esa mutaxassislarga harakatning har bir bosqichi haqida batafsil ma'lumot olish va har qanday kamchiliklarni aniqlash imkonini beradi (Robertson, G. E., Caldwell, G. E., Hamill, J., Kamen, G., Whittlesey, S. N. 2013).

Davletmuratov S.R., Asatova G.R., Karimov A.A., Jo'rayev I.B. va Nurmamatova S.Q.ning uzoq yillar davomida olib borgan ilmiy izlanishlariga ko'ra, qishki sport turlarini rivojlantirish, ushbu sport turlari uchun samarali mashg'ulot metodikasini ishlab chiqish, shuningdek, figurali uchish bilan shug'ullanuvchi sportchilarning koordinatsion qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus vositalarni qo'llash bo'yicha, yosh xokkeychilarni tezkor-kuch tayyorgarligini takomillashtirish bo'yicha izchil ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Bir qator olimlar fikriga ko'ra, yosh sportchilarning harakat tayyorgarligidagi ilmiy-uslubiy asoslar bolaning jismoniy rivojlanishi, uning o'sish va rivojlanish

xususiyatlari, shuningdek, sport musobaqasi talablari haqidagi ilmiy bilimlarning o‘zaro bog‘liqligi bilan belgilanadi. Bu jarayonda individual mashg‘ulot dasturlarini ishlab chiqish, ta’lim va mashg‘ulotlarda innovatsion usul va texnologiyalarni qo‘llash, shuningdek, ta’lim va mashg‘ulotlar samaradorligini nazorat qilish muhim elementlar hisoblanadi (Speranza, M.J., Stone, M.H., Fry, A.C., & Gonzalez, A.M.).

O‘yin davomida xokkeychi 10 km. gacha bo‘lgan masofani bosib o‘tishi uchun yuqori darajadagi konkida uchish texnikasini egallashi o‘yinchiga bu yuklamani eng kam energiya sarflagan holda bajarishga imkon berishi va shu bilan birga uning texnik arsenalini cheklamasligi muhim. Xokkeychi o‘zining konkida uchish qobiliyatiga ishonch hosil qilmaguncha, u o‘yin davomida butun e’tiborini taktik vazifalarni hal qilishga qaratish o‘rniga muvozanatni saqlash, konkida uchish usulini to‘g‘ri tanlaganligi haqida o‘ylaydi. Shuning uchun shug‘ullanishni boshlagan sportchilarni, avval, konkida yaxshi turishga va uchishga, shundan keyingina xokkey o‘ynashga o‘rgatish kerak. Konkida qo‘pol xato bilan harakatlanish texnikasini to‘g‘irlash xokkeychi mahoratining boshqa har qanday tarkibiy qismidan ko‘ra murakkab ekanligi o‘rganilgan adabiyotlar tahlilida aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot usullari va ularni tashkil qilinishi”** deb nomlangan ikkinchi bobida ilmiy-uslubiy adabiyotlarning tahlili, anketa-so‘rov, pedagogik kuzatuv, pedagogik testlash, pedagogik tajriba, tadqiqotni tashkil qilinishi, olingan materiallarni qayta ishlash bo‘yicha matemati-statistika metodlaridan foydalanilgan.

Tadqiqot 2022-2025 yillar mobaynida uch bosqichda amalga oshirildi.

Birinchi bosqich (2022-2023-yy). Tadqiqotning asosiy yo‘nalishi aniqlab olindi. Muammo yuzasidan mavjud ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlil qilinib, umumlashtirildi. O‘quv faoliyati pedagogik kuzatish asosida o‘rganildi, mutaxassislar bilan suhbatlar o‘tkazildi. Tadqiqotning maqsadi, obyekti va predmeti belgilandi. Ilmiy faraz asosida tadqiqotning asosiy g‘oyalari ishlab chiqildi hamda ushbu farazdan kelib chiqadigan ilmiy vazifalar aniqlashtirildi. Tadqiqot usullari tanlab olindi, uni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha reja ishlab chiqildi, shuningdek, tajriba-tadqiqot ishlari olib boriladigan baza belgilandi. Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichida ishtirok etayotgan yosh xokkeychilarning mashg‘ulot faoliyati tahlil qilindi, ularning harakat tayyorgarligi darajasini tavsiflovchi namunaviy ko‘rsatkichlar aniqlandi.

Ikkinchi bosqich (2023-2024-yy). Boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeylarning harakat tayyorgarligini rivojlantirishni ilmiy asoslashga qaratilgan 3D metodika ishlab chiqildi. Ushbu metodika asosida qiyosiy pedagogik tajriba o‘tkazildi. Tadqiqot doirasida xokkeylarning harakat tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha mavjud uslublar tahlil qilindi, shuningdek, muallif tomonidan taklif etilgan 3D, 2D va VR yondashuvlar sinovdan o‘tkazildi. Jumladan, laboratoriya (3D MA) va muz maydonida (Kinovea va React Light) maxsus metodikadan foydalangan holda sportchilarning harakat tayyorgarligi ko‘rsatkichlari muntazam ravishda nazorat qilindi. Maxsus harakat va texnik tayyorgarlik jarayoni zamonaviy texnik vositalar yordamida amalga oshirildi va ularning samaradorligi 30 nafar boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilar ishtirokida dinamik tahlil asosida baholandi.

Uchinchi bosqich (2024-2025-yy). Tadqiqot natijalari umumlashtirildi va boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilar uchun ishlab chiqilgan harakat

tayyorgarligini rivojlantirishning 3D metodikasi samaradorligi asoslab berildi. Olingan ma'lumotlar matematik va statistik jihatdan tahlil qilinib, tajribaning birinchi bosqichida aniqlangan model belgilarga muvofiqligi bo'yicha natijalar taqqoslandi. Tadqiqotning asosiy qoidalari shakllantirildi, xulosa va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot jarayonida harakat tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar majmuasining samaradorligi, shuningdek, qo'llanilgan 3D metodikasidagi natijalarni Kompleks baholash tizimi orqali asoslab berildi. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarning harakat tayyorgarliklaridagi kamchiliklarni aniqlash, ularni bartaraf etish va rivojlantirish yo'nalishida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda 9-10 yoshli 30 nafar yosh xokkeychilar ishtirok etdi.

Dissertatsiyaning **“Yosh xokkeychilarni tayyorlashda 3D, 2D va VR texnologiyalarini qo'llash metodikasini tajribadan o'tkazish”** deb nomlangan uchinchi bobida boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarning harakat tayyorgarligini rivojlantirish uslubiyati, xokkeychilardan olingan 3D laboratoriya testlari natijalari, xokkeychilardan olingan 2D laboratoriya testlari va VR moduli natijalari haqida ma'lumotlar berilgan.

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi (9 - 10 yosh) - xokkeychilarda harakat ko'nikmalari, muvozanat va fazoviy idrok asoslari shakllanadigan, keyingi ixtisoslashuv jarayonining “tayanch nuqtasi”dir. Mazkur bobda aynan shu bosqich uchun ishlab chiqilgan 3 komponentli (3D+2D+VR) kompleks uslubiyatning nazariy-metodik asoslari, tuzilishi va amaliy ahamiyati yoritiladi.

Metodika “uch blokli” tayyorgarlik tamoyiliga tayanadi:

3D-laboratoriya bloki - OptiTrack kameralarida biomexanik ko'rsatkichlarning (tizzalar burchagi, og'irlik markazi va h.k.) aniqligi bo'yicha individual profil tuzish;

2D-muz maydoni bloki - React-Light va kinogramma tahlili orqali asosiy texnik elementlarni (asosiy turish holati, start, himoyaviy qayrilish) real sharoitda korreksiyalash;

VR-sensomotorika bloki - Meta Quest Pro modullarida qaror qabul qilish tezligini, ko'rish-harakat koordinatsiyasini va stressga chidamlilikni rivojlantirish.

Tajriba boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi (9-10 yosh) yosh xokkeychilarning harakat tayyorgarligini shakllantirishda 3D, 2D va VR texnologiyalariga asoslangan mualliflik metodikasining samaradorligini tekshirish uchun ishlab chiqilgan. Tajriba mantig'i ilmiy yangilikning to'rtta tarkibiy qismiga tayanadi (Asosiy turish holati, start, qayrilish, diagonal sakrash) va 6 haftalik mashg'ulot siklidan oldin/keyin o'lchovlarni o'z ichiga oladi.


Dastlabki test sinalluvchilarning yoshi, bo'yi, soni, shug'ullanganlik staji jixatidan sezilarli farqlar yo'qligi, bu esa tajriba boshlanishidan oldin guruhlar o'rtasida tenglikni ko'rsatadi (1-jadvalga qarang).

**Tadqiqot boshida tajriba va nazorat guruhidagi xokkeychilar
haqida ma'lumot (n=30)**

Guruh	Klub	Yoshi	Bo'yi	n	Mashg'ulot staji, yil	
					\bar{X}	σ
TG	“Snejniy Bars”	9,4 ± 0,3	135,2 ± 2,1	15	1,8	0,4
NG	“Binokor-2”	9,5 ± 0,2	134,8 ± 2,0	15	1,9	0,5

Bosqichlari va davomiyligi

- Sikl davomiyligi: 6 hafta, haftasiga uch kunlik mashg'ulot.
- Tayyorgarlik bosqichi: boshlang'ich ixtisoslashuv (texnikaning asosiy elementlari).
- Nazorat bosqichlari: birinchisi - boshlang'ich hafta (Tadqiqotdan oldin), oxirgi 6-hafta (Tadqiqotdan keyin).



1-rasm 3 blokli tadqiqot olib boriladigan moddiy-texnik bazalari va vositalari

Izoh: Tajriba guruhi - to'liq kompleks: 3D laboratoriya, muz, VR. Nazorat guruhi - an'anaviy klub dasturida, 3D tahlil va VRsiz.

3 blokli tadqiqot laboratoriya, muz maydoni va VR-zalga bo'lingan ixtisoslashgan muhitlarda olib borildi: laboratoriyada 10 ta OptiTrack Prime 13 kamerasi va 3D MA v.2024 dasturiy ta'minoti sportchilarning asosiy turish holati hamda diagonal sakrashni olti marta takrorlatuvchi aniq 3D kinematik tahlilni ta'minladi; 60 × 30 m. o'lchamdagi muz maydonida Sony 60 fps kamerasi, Kinovea 23.1.6 va React-Light tizimi yordamida turish holatini doira bo'ylab 60 soniya davomida saqlash, 20 m. start tezlanishi va 180° ga qayrilish kabi “muz usti” testlari o'tkazildi; 4 × 4 m. VR-zalda Meta Quest Pro va NHL Sense Arena, Pick-up League hamda Hockey VR ilovalari orqali reaksiya va “ilon izi” kabi koordinatsion vazifalar sinab ko'rildi - shu tariqa har uch muhit sportchining turli harakat ko'nikmalarini to'liq raqamli monitoring bilan qamrab oldi (1-rasmga qarang).

Tajriba modeli dissertatsiya maqsadlariga to'liq javob beradi - bolalar xokkey klubining real sharoitlarida 3D metodikani sinab ko'rish va uning an'anaviy mashg'ulot jarayoni bilan taqqoslaganda harakat tayyorgarligining asosiy

parametrlariga ta'sirini baholashga imkon beradi.

Quyida tadqiqot vazifalari keltirilgan innovatsion elementlar bilan bog'lanib, ular mos testlar orqali qanday amaliy samara kutilgani ko'rsatilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Tadqiqot ishi vazifalarining tadqiqot yangiliklari bilan bog'liqligi

T/r	Yangilik elementi	Mos keluvchi test	Kutilayotgan samara
1	Xokkeychining asosiy turish holati 3D-tahlili	Laboratoriyada asosiy turish holati 6 takrorlash + muzda asosiy turish holati 60 s (10 marotaba)	Burchaklar o'zgaruvchanligining kamayishi, barqarorlik ortishi
2	Startning 2D-tahlili	20 m ga start	Vaqtни qisqartirish 0-10-20 m
3	Himoyaviy qayrilishning 2D-tahlili	Muzda 180° ga × 10 qayrilishlar	muvaqqiyatli urinishlar sonining ortishi, vaqtinigi kamayishi
4	Diogonal sakrashning 3D-tahlili	Laboratoriyada diogonal bo'yicha sakrash	sakrash uzunligining ortishi

Izoh: 0-hafta: asosiy o'lchovlar - 1-hafta 1-6: 2.5-§ rejasi bo'yicha 3 kun/haftada - 6-hafta: takroriy o'lchovlar - statistik tahlil.

Jadvalda xokkeychining asosiy turish holatini 3D-tahlil qilish laboratoriya va muz sharoitida burchaklardagi o'zgaruvchanlikni kamaytirib, barqarorlikni mustahkamlashi; start harakatining 3D-tahlili 20 m masofani bosib o'tish vaqtini 0-10-20 m oralig'ida qisqartirishi; himoyaviy qayrilishni 3D-tahlil qilish 180° ga x 10 qayrilishlarda muvaqqiyatli urinishlar sonini ko'paytirib, unga ketadigan vaqtini kamaytirishi; diagonal sakrashning 3D-tahlili esa sakrash uzunligini oshirishi kuzatilgan.

6 haftalik metodikani bosqichma-bosqich (haftalar satrda) va uch xil mashg'ulot muhitini (3D-laboratoriya bloki, VR-bloki, muz maydoni + React-Light) parallel ustunlarda ko'rsatadi (3-jadvalga qarang).

3-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarni harakat va texnik tayyorgarligini rivojlantirish bo'yicha 6 haftalik metodika

Hafta	3D-blok (laboratoriya / muzdan tashqarida)	VR-blok (Meta Quest Pro)	Muz + React-Light	Haftalik maqsadli ko'rsatkichlar
1	S-1 «Statika + sekin orqaga qaytish» 6×15 soniya, tanaffus 30 soniya J-1 «Qisqa diagonal» 45-55sm, 3×3 sak. (O'/CH), tanaffus 45 soniya	VR-R1 Sense Arena «Basic Reaction» 3×2 daq.	Ice-S1 Asosiy turish 60 s, oraliq 8s, 2×10 ta takrorlash	Dastlabki ko'rsatkichlarni to'plash; burchak daraja ± 5°

3-jadvalning davomi

2	S-2 «Tezkor qaytish» 6×12 soniya J-2 55-60 sm., 4×3	VR-R2 «Moving Targets» 3×2 daqiqa	Ice-C1 Qayrilish 180°, oraliq 4 soniya, 3×5	Tizza $\sigma \downarrow \geq 10\%$; start $\leq 4,4$ soniya
3	J-3 60-65 sm , 4 × 4	VR-Z1 Pick-Up «Zig-Zag» 3×3 daqiqa	Ice-S2 Start 20 m + Qayrilish, 4 takrorlash	≥ 6 ta sikldan 4 tasi ruxsat etilgan
4	S-3 «Statika + React-Light» (oraliq 6 soniya) J-4 Kuchga (+5 % metr) 60-65 sm , 3×3	VR-T1 Hockey VR «Turn Drill» 3×2 daqiqa	Ice-R2 «Devor» - ikkilik qayrilish, 4×3	Sakrash ≥ 65 sm.; start $\leq 4,3$ soniya
5	3D J-5 Seriya 6 sakrash, oʻrtacha ≥ 70 sm	VR-R3 Sense Arena «Reaction Pro» 3×2 daqiqa	Ice-S3 Juftlik start 20 m, 5 ta urinish	Sakrashning oʻrtacha uzunligi ≥ 70 sm
6	S-4 Musobaqa testi 6 ta sikl J-6 «Maksimal» ≥ 75 sm , har bir oyoqda 5 ta urinish	VR-G «Game Scenario» 3×3 daqiqa	Ice-C2 Yakuniy kross-test: asosiy turish - start - qayrilish	Yakuniy: start $\leq 4,0$ soniya; KB $\geq 0,69$

Izoh: S- Stance (asosiy turish holatidagi mashqlar); J- Jump (diagonal sakrash); VR - virtual reallikdagi bloklar; Ice- React-Light bilan muz ustida mashqlar (start, qayrilishlar va boshqalar). Masalan: “J-1” “J-2”... “J-6” - bu diagonal sakrash mashqlarining ketma-ket variantlari boʻlib, unda amplituda, ketma-ketlik yoki ogʻirlik bilan mashqlar qoʻshilib boradi.

Jadvaldan koʻrinib turibdiki har hafta ichida statik-dinamik usullar ketma-ketligi asta-sekin murakkablashib boradi - masalan, S-1 «statika + sekin ortga qaytish»dan S-4 «musobaqaga yaqin test» gacha, J-harflar bilan belgilangani esa diagonal sakrash seriyalarining hajm va amplituda boʻyicha kengayib borishini bildiradi; VR segmentlari Meta Quest Pro garniturasini orqali oʻsib boruvchi koʻp fazali harakatlarga (Sense Arena - Moving Targets - Pick-Up - Hockey VR - Reaction Pro - Game Scenario) oʻtadi; muz maydonidagi bloklar React-Light yordamida asosiy turish holati, 180° qayrilish, start-qayrilish ketma-ketligi va yakuniy kross-test singari real-muz sinovlarini muntazam takrorlaydi; oxirgi ustunda esa har hafta uchun maqsadli koʻrsatkichlar (masalan, tizzalar burchagi $\geq 10\%$, start $\leq 4,0$ s., Kompleks ball $\geq 0,69$) belgilab, butun dastur boʻylab yuklama va sifat monitoringining yakuniy mezonini beradi.

“6 haftalik metodika”dagi har bir mashq kodini (S-1 - S-4 statik/kinematik mashqlar, J-1 - J-6 diagonal sakrashlar, VR-R1 - VR-G virtual simulyatsiyalar, Ice-S1 - Ice-C2 muz sinovlari) quyidagi jadvalda batafsil ochib beriladi (4-jadvalga qarang).

6 haftalik metodikada berilgan mashqlarning batafsil izohi

Kod	Batafsil mazmuni va texnikasi	Me'yorlash (1 mashg'ulot)	Nazorat / hisobga olish mezonlari
S-1	Markazdan start olish, fishka tomon qadam tashlash, orqaga qaytish, tik turishni qayd etish 2 soniya. Asosiy urg'u - tizza burchagi $\approx 95^\circ$, to'piq $\approx 20^\circ$, gavda egilishi $\approx 30^\circ$.	6 \times 15 soniya, tanaffus 30 soniya	3D-MA: barcha 3 ta burchak $\pm 5^\circ$ ruxsat etilgan holatda - sikl "hisoblangan"
S-2	Xuddi shu, lekin qayd qilish 1 soniya; qaytish tezroq.	6 \times 12 soniya, tanaffus 25 soniya	Xuddi shu mezon; σ tizza \downarrow
S-3	Statika + React-Light: yonish qaytarilganda, uni o'chirish kerak.	6 ta sikl	Turish to'g'ri + yonish o'chirilgan
S-4	Musobaqa testi: maksimal 60 soniyalik vaqt uchun 6 ta sikl.	1 ta takrorlash	"Yashil" sikllar soni (0-10)
J-1	Qisqa diagonal sakrash - depsinilgan oyoqqa tushish. Maqsad 45-55 sm .	3 \times 3 (o'ng/chap), tanaffus 45 soniya	Lenta + Kinovea: $L \geq 45$ sm
J-2	O'rtacha diagonal 55-60 sm.	4 \times 3 (o'ng/chap)	Simmetriya $\leq 8\%$
J-3	Uzaytirilgan 60-65 sm; qo'llar amplitudasiga urg'u berish.	4 \times 4 (o'ng/chap)	3D-MA depsinish burchagi
J-4	Kuchga: jilet + 5 % massa, uzunlik 60-65 sm	3 \times 3 (o'ng/chap)	$V_{\text{pik}} \geq 1,35$ m/s
J-5	Seriyali: 6 ta sakrash tanaffussiz, o'rtacha uzunlik ≥ 70 sm .	2 ta takrorlash	Baholash shakli «3D-MA running average»
J-6	Maksimal ≥ 75 sm; har bir oyoqda 5 ta urinish	1 ta takrorlash	Eng yaxshi natija qayd etiladi
VR-R1	Sense Arena «Basic Reaction»: bittalik yonish, chapyon bilan tegish.	3 \times 2 daqiqa, tanaffus 1 daqiqa	Reaksiya vaqti, aniqlik
VR-R2	«Moving Targets»: nishonlar harakatlanadi.	3 \times 2 daqiqa	Vaqt ≤ 400 ms
VR-Z1	Pick-Up «Zig-Zag»: virtual "Ilon izi" bo'yicha sirg'alish.	3 \times 3 daqiqa	Tezkorlik, to'qnashib ketishlar
VR-R3	Sense Arena «Reaction Pro»: nishonlarning yuqori zichligi.	3 \times 2 daqiqa	Reaksiya ≤ 350 ms
VR-T1	Hockey VR «Turn Drill»: tezkor 180° ga qayrilishlar	3 \times 2 daqiqa	Qayrilish vaqti $\leq 1,7$ s
VR-G	Mix - to'laqonli simulyato o'yin.	3 \times 3 daqiqa	Dastur avto-statistikasi
Ice-S1	Dinamik asosiy turishg 60 soniya, oraliq 8 soniya, 2 \times 10 ta sikl.	2 ta takrorlash	≥ 4 "hisoblangan" sikllar
Ice-C1	Himoyaviy qayrilish 180° , oraliq 4 soniya, 3 \times 5	3 ta takrorlash	Samara ≥ 10 dan 8
Ice-S2	20 m ga Start + qayrilish, 4 ta takrorlash.	4 ta takrorlash	Vaqt $\leq 4,4$ soniya
Ice-R2	«Devor» - ikkilik qayrilish.	4 \times 3	Aniqlik/tezkorlik
Ice-S3	20 m ga juftlik start (2 karra), 5 ta takrorlash.	5 ta takrorlash	Jamlanma vaqt
Ice-C2	Yakuniy kross-test test: asosiy turish - start - qayrilish (10 element).	1 ta takrorlash	Kompleks kross balli

Izoh: • 3D va VR mashg'ulotlar - chorshanba, muz - dushanba va juma.

Jadval ustunlarida mashqning mazmuni-texnikasi, bitta seansdagi takror-takrorlamalar (me'yorlash) va natijani qayd etish mezonini keltirilgan. Shu tarzda jadval murabbiyga mashqlarni to'g'ri me'yorlash (masalan, S-1 - 6×15 s statika, tana burchaklari 3D-MA orqali "hisoblangan"), o'sishni ko'rish (S-1 dan S-4 gacha statikadan maksimal testgacha), funksional bloklararo uzviylikni (J-sakrashlarning uzunlik-amplitudasi bosqichma-bosqich oshishi, VR mashg'ulotlarida reaksiya va aniqlik mezonlari ≤ 400 ms, muz sinovlarida start va qayrilish vaqti ≤ 4 soniya kabi cheklovlar) va obyektiv nazoratni (3D, lenta, Kinovea, React-Light, Kompleks ball) birdan ko'z oldiga keltiradi.

Kuchga yo'naltirilgan mashg'ulotlar dasturi 6 haftalik siklda bosqichma-bosqich murakkablashtirildi (5-jadvalga qarang).

5-jadval

Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarning diagonal sakrashini rivojlantirish uchun kuch mashg'ulotlari dasturi

T/r	mud dat	Mashq	Takrorlashlar/ vaqt	Dam olish	Maqsad
1.	1-2-haftalar	Yugurish joyida + cho'zilish	3 daqiqa	30 soniya	Tanani qizib olishi va harakat doirasini kengaytirish
2.		Tirsakda tayanishda gavdani ushlab turish (planka)	3×20 soniya	20 soniya	Bel, qorin va gavda barqarorligi uchun
3.		Ko'tarilgan platformaga chiqib-tushish (har oyoqda)	2×8 marta	20 soniya	Son va orqa son yuqori mushaklari ishlaydi
4.		Bir oyoqda ko'prik (har oyoqda)	2×10 marta	20 soniya	Dumba sohasi va son orqa mushaklari uchun
5.		Oyoq uchlariga ko'tarilib-tushish	2×15 marta	30 soniya	Oyoq boldir mushaklarini mustahkamlash
6.		Yon tomonga qadam (rezinka bilan)	2×10 qadam	20 soniya	Tashqi son mushaklarini faollashtirish
7.	3-4-haftalar	Yengil sakrash + qadamlar	3 daqiqa	30 soniya	Tanani qizib olishi va muvofiqlashtirish
8.		Orqaga qadam bilan cho'nqayish (har oyoqda)	2×8 marta	20 soniya	Son va dumba kuchi uchun
9.		Diagonal sakrash (bir oyoqdan boshqasiga)	3×8 marta	20 soniya	Sakrash kuchi va muvozanat
10.		Devorga suyanib turish (statik cho'nqayish)	2×30 soniya	20 soniya	Son mushaklarida chidamlilik
11.		Yon tomonga sakrab tushib, 1 soniya ushlab	2×6 marta	15 soniya	Stabilizator mushaklarni faollashtirish
12.		Yon tomonlama gavdani ushlab (yon plank)	2×20 soniya	20 soniya	Yon qorin mushaklari uchun

5-jadvalning davomi

13.	5-6-haftalar	Kichik joyda tez qadamlar	2 daqiqa	30 soniya	Tizza va tovon ishlashi uchun
14.		Qutichaga sakrash (baland qadam bilan)	2×6 marta	30 soniya	Portlovchan kuch
15.		Diagonal sakrash + balansda turish	2×6 har yo‘nalishda	15 soniya	Sakrash va muvozanatni birlashtirish
16.		Tirsakda tayanish (bir oyoq ko‘tarilgan)	2×10 marta	20 soniya	Tananing barqarorligini oshirish
17.		Devorga qarshi to‘pni tanani aylantirib urish	2×10 marta	30 soniya	Gavda burilishi va portlovchanlik
18.		Cho‘zish mashqlari (statik)	4 daqiqa	-	Mushaklarni tiklash uchun
19.	Y/T	Yakuniy maksimal sakrashlar	3 ta urinish o‘ng/chap	-	Eng yaxshi natijani qayd qilish (sm.)

Jadvalda 9-10 yoshli xokkeychilar uchun har hafta 3D-blokdan so‘ng qo‘llaniladigan kuch mashqlari dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, ular diagonal sakrashni, ya‘ni mushaklar kuchi, muvozanat va portlovchanlikni rivojlantirishga qaratilgan. Dastur 5 hafta davomida bosqichma-bosqich murakkablik darajasi ortib boradigan mashqlar ketma-ketligidan iborat.

1-2-haftalar: Tayyorlov va umumiy kuch mashqlari

Dastlabki bosqichda tana harorati va mushaklarning harakatga tayyor holatini shakllantirishga qaratilgan mashqlar tanlangan. Yugurishdan keyin cho‘zilish mashqlari orqali tanani isitish va bo‘g‘imlarning harakat diapazonini kengaytirish maqsad qilingan. Keyingi mashq - tirsakda tayanishda gavdani ushlab turish (planka) orqali bel, qorin va gavda barqarorligini ta‘minlovchi mushaklar faollashtiriladi.

Platformaga ko‘tarilish va tushish, bir oyoqda ko‘prik kabi mashqlar esa son va dumba sohasi mushaklarini ishga soladi. Bu esa diagonal sakrash uchun muhim tayanch kuchni hosil qiladi. Oyoq uchi bilan ko‘tarilish, yon tomonlama qadamlar (rezinka bilan) va yengil sakrash-qadamlar esa balandlikka harakatlanish, oyoq muskullarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

3-4-haftalar: Muvozanat, yo‘nalish va kuchlanish mashqlari

Keyingi bosqichda mashqlar murakkablashib, asosiy diagonal harakatga yaqinlashtiriladi. “Orqaga qadam bilan cho‘nqayish”, “diagonal sakrash (bir oyoqdan boshlanadigan)” mashqlari orqali nafaqat oyoq mushaklari balki tananing harakatni boshqaruvchi barqarorlik tizimi kuchaytiriladi.

Statik va dinamik holatlarda bajartiriladigan mashqlar - devorga suyanib turib sakrash, yon tomonga sakrab tushib, 1 soniya ushlab turish - mushaklarning eksantrik va konsentrik qisqarishlari orqali harakatni nazorat qilishga yordam beradi. Ayniqsa “yon plankada” gavdani ushlab turish bo‘yicha mashq - qorin yon mushaklari va gavdani ushlab turish qobiliyatini rivojlantiradi.

5-6-haftalar: Ixtisoslashgan kuch va portlovchanlik mashqlari

Bu bosqichda sportchining maksimal kuchga chiqishi va real xokkey harakatlariga moslashuviga yo‘naltirilgan mashqlar tanlangan. Jumladan, kichik joyda tez qadamlar, qutichaga sakrash, diagonal sakrash (baland to‘siq orqali), tirsakda tayanishda gavda aylantirish kabi murakkab, koordinatsiyani va to‘satdan

kuch sarflashni talab qiluvchi mashqlar kiritilgan.

Ushbu haftadagi mashqlar orqali sportchining sakrashda kuch va tezlikni birgalikda ishlab chiqish, tana og'irligini muvozanatli tarzda boshqarish, hamda yo'nalishni tez o'zgartirish rivojlantiriladi.

Yakuniy test: Natijani baholash

Mashg'ulotlar yakunida 3 marta diagonal sakrash (o'ng va chap oyoq bilan) bajarilib, maksimal natijalar qayd etiladi. Bu orqali sportchining dastur davomida erishgan yutuqlari aniqlanadi.

To'g'ri bajarilgan asosiy turish holatlari soni, tizza burchagi o'zgaruvchanligi (σ) va gavdaning o'rtacha egilishining o'rtacha qiymatlari ($\bar{X} \pm \sigma$) aks ettirilgan. Nisbiy o'sish ustunida "oldin - keyin" farqi keltirilgan; izohda TGda ishonchli o'zgarigan ko'rsatkichlar belgilangan ($P < 0,05$ juft t mezon). NG uchun barcha holatlarda $P > 0,05$ bo'lib, bu 3D usuli qo'llanilmaganda statistik jihatdan ahamiyatli siljishlar yo'qligini ko'rsatadi. Bu natijalar 3D-asosli mashg'ulot metodikasi asosiy turish holatining barqarorligi va aniqligini ancha samarali oshirganini ko'rsatadi (6-jadvalga qarang).

6-jadval

Xokkeychilarning asosiy turish holati va diagonal bo'ylab sakrash bo'yicha tajribadan oldinga va keyingi ko'rsatkichlar (n = 30)

Ko'rsatkichlar	Guruh	Tadqiqotdan oldin		Tadqiqotdan keyin		Nisbiy o'sish (%)	t	P
		\bar{X}	σ	\bar{X}	σ			
Xokkeychilarning asosiy turish holati								
Samarali takrorlashlar (6 ta urinishdan)	TG	3,10	0,90	4,30	0,80	39%	4,11	< 0,01
	NG	3,00	1,00	3,30	1,10	10%	1,02	> 0,05
Tizza burchagining (°)	TG	6,00	1,40	4,70	1,10	22%	3,87	< 0,01
	NG	5,90	1,30	5,60	1,20	5%	0,89	> 0,05
Gavdani egilishi (°)	TG	26,80	3,50	28,20	2,70	5%	2,22	< 0,05
	NG	27,10	3,20	27,80	3,00	3%	1,15	> 0,05
Diagonal bo'yicha sakrash (depsingan oyoqqa qaytib tushish)								
Sakrash uzunligi, o'ng oyoq (sm)	TG	63,00	5,00	68,00	4,00	8%	4,28	< 0,01
	NG	59,00	6,00	61,00	5,00	3%	1,31	> 0,05
Sakrash uzunligi, chap oyoq (sm)	TG	59,00	6,00	64,00	5,00	8%	4,06	< 0,01
	NG	57,00	5,00	59,00	5,00	3%	1,24	> 0,05

Tajriba (TG) va nazorat (NG) guruhlarida diagonal bo'ylab sakrash (depsinilgan oyoqqa qo'nish) parametrlarining o'zgarishi. 6-jadvalda o'ng va chap oyoq bilan sakrash uzunligi ko'rsatilgan. Qiymatlar quyidagicha berilgan: o'ratahadan og'ishi, nisbiy o'sish ustuni 6 haftadan keyingi o'sish/kamayishni ko'rsatadi. Jadvaldan ko'rinib turganidek TGda ishonchli o'zgarishlar aniqlandi ($P < 0,01$). Nazorat guruhining barcha qatorlarida ko'rsatkich $P > 0,05$ bo'lib, bu odatiy dasturda sezilarli o'sish yo'qligi kuzatilgan.

Quyidagi jadval shuni ko'rsatadiki, olti haftalik sikldan so'ng tajriba guruhi dinamik asosiy turish holati bo'yicha sezilarli darajada ko'proq muvaffaqiyatli sikllarini bajarishdi: tajribadan oldin 4,5 ga nisbatan o'rtacha 6,3 (o'sish 40%, $P < 0,01$). Nazorat guruhi faqat 9 foizga ($P > 0,05$) sezilarsiz o'sishni ko'rsatdi (7-jadvalga qarang).

7-jadval

Xokkeychilarning dinamik asosiy turish holati, 20 m ga start va Himoyaviy 180°ga qayrilish bo'yicha tajribadan oldingi va keyingi ko'rsatkichlari (n = 30)

Ko'rsatkichlar	Guruh	Tadqiqotdan oldin		Tadqiqotdan keyin		Nisbiy o'sish (%)	t	P
		\bar{X}	σ	\bar{X}	σ			
1 daqiqadagi samarali ko'rsatkichlar	TG	4,50	1,30	6,30	1,10	40%	4,22	< 0,01
	NG	4,40	1,20	4,80	1,30	9%	1,08	> 0,05
20 m vaqti (s)	TG	4,20	0,21	3,94	0,18	6,2%	3,45	< 0,01
	NG	4,15	0,20	4,10	0,20	1,2%	0,92	> 0,05
Qayrilish samaradorligi (10 tadan)	TG	6,20	1,40	8,10	1,00	31%	3,93	< 0,01
	NG	6,10	1,50	6,50	1,40	7%	1,04	> 0,05

20 m ga start bo'yicha tajriba guruhi 20 m ga sirg'alish vaqtini 4,20 dan 3,94 soniyagacha qisqartirdi (6,2%, $t=3,45$, $P < 0,01$). Nazorat guruhidagi sportchilar 1,2% ga yaxshilandi (4,10 soniyagacha), bu statistik jihatdan ishonchsiz. Ushbu natijalar 3D va React-Light mashqlarini qo'shish boshlang'ich ko'nikmalarni tezlashtirishini tasdiqlaydi.

Tajriba guruhi muvaffaqiyatli qayrilishlar sonini 6,2 dan 8,1 gacha oshirdi (31%, $t=3,93$, $P < 0,01$). Nazorat guruhida o'sish atigi 7% ni tashkil etdi va ishonchli bo'lmadi. Bu React-Light texnologiyasi himoya holatidagi harakatchanlikni yaxshilashini ko'rsatadi.

Tajriba guruhining reaksiya vaqti 35 ms. (8,5%, $t=3,58$, $P < 0,01$) ga kamayganligi, aniqlik esa 6,5 foiz birligiga (8,3%, $t=3,12$) oshganligi aks ettirilgan. Nazorat guruhi ahamiyatsiz o'zgarishlarni ko'rsatdi. Ushbu ma'lumotlar VR-mashg'ulotning vizual-motor javoblarning tezligi va aniqligini samarali oshirishini tasdiqlaydi (8-jadvalga qarang).

8-jadval

Xokkeychilarning vizual-harakat reaksiya (Sense Arena), «Ilon izi» yo'nalishida sirg'alish (Pick up League Hockey), 180°ga qayrilishlar va pozitsiya tanlash natijalari (Hockey VR) (n = 30)

Ko'rsatkichlar	Guruh	Tadqiqotdan oldin		Tadqiqotdan keyin		Nisbiy o'sish (%)	t	P
		\bar{X}	σ	\bar{X}	σ			
Vizual-harakat reaksiya (Sense Arena)								
Reaksiya vaqti, ms	TG	412	38	377	32	8,5%	3,58	< 0,01
	NG	410	41	402	39	1,7%	0,88	> 0,05
Reaksiya aniqligi, %	TG	78,4	6,2	84,9	5,5	8,3%	3,12	< 0,01
	NG	79,1	6,4	80,3	6,0	1,5 %	0,96	> 0,05

8-jadvalning davomi

«Ilon izi» yo‘nalishida sirg‘alish (Pick-up League Hockey)								
O‘rtacha tezlik, km/s	TG	12,80	1,10	13,90	1,00	8,6%	3,24	< 0,01
	NG	12,70	1,00	13,00	1,10	1,6%	0,74	> 0,05
Xatolar (konuslarga tegib ketish)	TG	4,10	1,20	2,90	1,00	29%	2,83	< 0,05
	NG	4,00	1,10	3,70	1,20	7%	0,95	> 0,05
180°ga qayrilishlar va pozitsiya tanlash natijalari (Hockey VR)								
180° ga qayrilish vaqti, soniya	TG	1,87	0,16	1,68	0,14	10,2%	3,07	< 0,01
	NG	1,88	0,15	1,83	0,16	2,7%	1,11	> 0,05
Pozitsiyani tanlash aniqligi, %	TG	71,20	7,40	78,50	6,80	10,3%	3,26	< 0,01
	NG	72,00	7,10	73,40	7,00	1,9%	0,88	> 0,05

«Ilon izi» yo‘nalishida sirg‘alish (Pick up League Hockey) bo‘yicha VR blokidan so‘ng tajriba guruhi o‘rtacha tezlikni 8,6% ga oshirdi ($t=3,24$, $P<0,05$) va konuslar bilan to‘qnashuvlar sonini 29% ga kamaytirdi ($t=2,83$, $P<0,05$). Nazorat guruhi o‘zgarishlarni ko‘rsatmadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, “Ilon izi” VR o‘yini harakatni muvofiqlashtirish va nazorat qilishni yaxshilaydi.

180°ga qayrilishlar va pozitsiya tanlash natijalarini Hockey VR o‘yin-dasturi orqali tajriba guruhida burilish vaqti 0,19 soniyaga qisqardi (10,2%, $t=3,07$, $P<0,05$) va pozitsiyani tanlash aniqligi 7,3 foiz birligiga oshdi (10,3% $t=3,26$, $P<0,05$). Nazoratda o‘sishi sezilarli emas. Ushbu natijalar VR-modulning taktik yo‘nalish va yo‘nalishni o‘zgartirish tezligini samarali o‘rganishini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning **“Yosh xokkeychilarni tayyorlashda 3D kompleks metodikasini qo‘llash natijalari muhokamasi, ularning nazariya va amaliyot uchun ahamiyati”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarni 3D, 2D va VR ma’lumotlari asosida metodikaning samaradorligini tahlil qilish, boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilaridan olingan natijalarning uslubiy ahamiyati to‘g‘risida ma’lumotlar berilgan.

Ushbu bobda uchta asosiy sinov bloki ma’lumotlarini birlashtirgan tajriba-sinov ishlari natijalarining Kompleks tahlili amalga oshiriladi: laboratoriya 3D-tahlili, muzli 2D-testlar va VR modullar. Bu 3D-texnologiyalarni qo‘llashning tor ixtisoslashgan ta’sirini ham, ularning muz-VR o‘yin muhitiga o‘tkazilishini ham, shuningdek, 9-10 yoshli xokkeychilarning harakat tayyorgarligini shakllantirishda metodikaning yaxlit samaradorligini baholash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot ishlari 3D, 2D va virtual reallik (VR) texnologiyalari asosida ishlab chiqilgan mashg‘ulot metodikasining samaradorligini baholash maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqot obyekti sifatida “Snejniy Bars” xokkey klubi sportchilari tanlandi. Tajriba ishlari 6 haftalik davr mobaynida olib borildi va 4 ta asosiy fiziologik hamda biomexanik parametr bo‘yicha monitoring amalga oshirildi

(9-jadvalga qarang).

9-jadval

Tadqiqot davrida tajriba va nazorat guruhlarining nazorat nuqtalari bo'yicha kompleks ball (KB) ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	T ₀ Start	T ₁ 2-hafta	T ₂ 4-hafta	T ₃ 6-hafta
Snejniy Bars (tajriba guruhi)				
To'g'ri asosiy turish holati (0-10) - Naso.tur.hol.	4,50	5,20	5,80	6,30
σ tizza burchagi (°)	6,00	5,40	5,00	4,70
Diagonal sakrash uzunligi (sm) - L _{dio.sak.}	122,0	125,0	128,5	132,0
20 m ga start vaqti (soniya) - t _{20m}	4,15	4,08	4,010	3,94
Binokor-2 (nazorat guruhi)				
To'g'ri asosiy turish holati (0-10) - Naso.tur.hol.	4,4	4,5	4,7	4,8
σ tizza burchagi (°)	5,9	5,8	5,7	5,6
Diagonal sakrash uzunligi (sm) L _{dio.sak.}	116,0	117,0	118,0	120,0
20 m ga start vaqti (soniya) - t _{20m}	4,15	4,14	4,12	4,10

Tajriba guruhi uchun natijalar va ularning tahlili - to'g'ri asosiy turish holati parametri dinamikasi, statistik tahlil natijalariga ko'ra, to'g'ri asosiy turish holati ko'rsatkichi tadqiqot davomida monoton o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Boshlang'ich ko'rsatkich 4,5 tani tashkil etgan bo'lib, ikkinchi hafta yakunida 5,2 tagacha (15,6% o'sish), to'rtinchi haftada 5,8 ta (28,9% o'sish), oltinchi hafta tugagach esa 6,3 taga (40% o'sish) erishdi. Mazkur o'zgarishlar statistik jihatdan ahamiyatli bo'lib, sportchilarning postural nazorat tizimining takomillashganligini tasdiqlaydi.

Tizza burchagi variativligi parametri tahlili - tizza burchagi variativligi ko'rsatkichi eksperiment davomida pasayish dinamikasini ko'rsatdi. Boshlang'ich qiymat 6,0 gradusni tashkil etgan bo'lib, ikkinchi haftada 5,4 burchak daraja (10%), to'rtinchi haftada 5,0 burchak daraja (16,7%), oltinchi hafta yakunida esa 4,7 burchak daraja (21,7%) qayd etildi. Ushbu natijalar sportchilarning harakat koordinatsiyasi va tizza bo'g'imi biomexanikasining optimallashtirganligini ifodalaydi.

Diagonal sakrash uzunligi ko'rsatkichlari - diagonal sakrash uzunligi parametri doimiy progressiv o'sish tendensiyasini namoyon etdi. Boshlang'ich o'lchov 122,0 sm bo'lib, ikkinchi haftada 125,0 sm, to'rtinchi haftada 128,5 sm., oltinchi hafta yakunida esa 132,0 smni tashkil etdi. Bu natijalar sportchilarning pliometrik qobiliyatlari va kuch ko'rsatkichlarining yaxshilanganligini tasdiqlaydi.

Start tezligi parametri dinamikasi - 20 metrlik masofani bosib o'tish vaqti barcha o'lchov bosqichlarida qisqarish tendensiyasini ko'rsatdi. Dastlabki natija 4,15 soniya

bo‘lib, ikkinchi haftada 4,08 soniya, to‘rtinchi haftada 4,01 soniya, oltinchi hafta oxirida esa 3,94 soniya qayd etildi. Mazkur o‘zgarishlar sportchilarning anaerob va sprint tezligi ko‘rsatkichlarining sezilarli yaxshilanganligini bildiradi.

To‘g‘ri asosiy turish holati parametri dinamikasi - Nazorat guruhida to‘g‘ri asosiy turish holati ko‘rsatkichi sekin o‘shish ko‘rsatkichini namoyon etdi. Boshlang‘ich ko‘rsatkich 4,4 tani tashkil etgan bo‘lib, ikkinchi hafta yakunida 4,5 tagacha (2,3% o‘shish), to‘rtinchi haftada 4,7 ta (6,8% o‘shish), oltinchi hafta tugagach esa 4,8 taga (9,1% o‘shish) erishdi. Mazkur o‘zgarishlar sezilarli bo‘lmagan o‘shish dinamikasini ko‘rsatadi va an’anaviy metodikaning cheklangan samaradorligini tasdiqlaydi.

Tizza burchagi variativligi parametri tahlili - tizza burchagi variativligi ko‘rsatkichi eksperiment davomida gradual kamayish ko‘rsatkichini ko‘rsatdi. Boshlang‘ich qiymat 5,9 gradusni tashkil etgan bo‘lib, ikkinchi haftada 5,8 gradus (1,7% kamayish), to‘rtinchi haftada 5,7 gradus (3,4% kamayish), oltinchi hafta yakunida esa 5,6 gradus (5,1% kamayish) qayd etildi. Ushbu kamayish minimal darajada bo‘lib, harakat koordinatsiyasining sekin yaxshilanganligini ifodalaydi.

Diagonal sakrash uzunligi ko‘rsatkichlari - diagonal sakrash uzunligi parametri nisbatan barqaror o‘shish ko‘rsatkichini namoyon etdi. Boshlang‘ich o‘lchov 116,0 sm bo‘lib, ikkinchi haftada 117,0 sm., to‘rtinchi haftada 118,0 sm., oltinchi hafta yakunida esa 120,0 sm.ni tashkil etdi. Bu natijalar sportchilarning pliometrik qobiliyatlarida minimal yaxshilanishni ko‘rsatadi.

Start tezligi parametri dinamikasi - 20 metrlik masofani bosib o‘tish vaqti barcha o‘lchov bosqichlarida sekin qisqarish ko‘rsatkichini ko‘rsatdi. Dastlabki natija 4,15 soniya bo‘lib, ikkinchi haftada 4,14 soniya, to‘rtinchi haftada 4,12 soniya, oltinchi hafta oxirida esa 4,10 soniya qayd etildi. Mazkur o‘zgarishlar sprint tezligi ko‘rsatkichlarining minimal yaxshilanganligini bildiradi.

Nazorat nuqtalari bo‘yicha olingan ma‘lumotlarni quyidagi jadvalda ko‘rib chiqamiz (10-jadvalga qarang)

10-jadval

Barcha nazorat nuqtalari bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlarining yakuniy Kompleks ballari (KB)

Muddat	Kompleks ballar (KB)	
	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi
T ₀	0,551	0,552
T ₁	0,614	0,563
T ₂	0,658	0,576
T ₃	0,694	0,586


Dinamika:

Dastlabki daraja - 0,55 (“o‘rta” zonada);

2-hafta yakunida 11,4 %;

4-hafta yakunida 19,4 %;

6-hafta yakunida 25,95 %, sikldagi yakuniy o‘shish $\approx 26\%$ (0,694), tajriba guruhi boshlang‘ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilar mezoni bo‘yicha “yuqori tayyorgarlik” ($>0,55$) diapazoniga o‘tgani ma‘lum bo‘ldi.



ΔT_0-T_3 , % TG +26%, NG +6%

2-rasm. Tajriba va nazorat guruhlari uchun umumlashtirilgan KB (Kompleks ball) dinamikasi

Izoh: baholash shkalasi II-bob, 2.1.5. Matematik statistika uslublarida berilgan

“Yuqori tayyorgarlik” chegarasi $KB > 0,60$ dan boshlanadi. Tadqiqotimiz yakunida tajriba guruhi kompleks ballni baholash shkalasi bo‘yicha “o‘rtacha”dan (0,551) “yuqori”ga (0,694) ko‘tarildi. Nazorat guruhi o‘rtacha zona darajasida qoldi (2-rasmga qarang).

Olib borilgan 6 haftalik kompleks mashqlar (3D-laboratoriya, muz usti 2D-analiz va VR bloklari) tajriba guruhida nazorat guruhiga qaraganda har uch muhitda o‘rtacha-yuqori amaliy samara (Cohen $d \approx 0,70-0,80$) berganini aniq tasdiqlaydi. 3D-laboratoriyada “to‘g‘ri” asosiy turish holatining soni 6 urinishda 3,1 dan 4,3 taga (39%) ko‘payib, nisbiy o‘shish $NG=0,3$ taga nisbatan 0,74 birlikli samarani hosil qildi; bu 3D kinematik tahlil va real-vaqtli vizual-qayta aloqa (Optitrack + 3DMA) fonida tayanch barqarorligi va tana holatiga oid o‘zgaruvchanlik pasayishini bildiradi. Xuddi shu sharoitda diagonal sakrash uzunligining ikki oyoqda o‘rtacha 5sm (8%) ga uzayishi ($d = 0,79$) pastki tanadagi yon tomonga portlash kuchi impulsini aniq oshirdi (11-jadvalga qarang).

3 blokli metodikaning sinaluvchilarda umumiy o‘shish va samara kuchi ko‘rsatkichlari

Bo‘lim	Asosiy ko‘rsatkich	Nisbiy o‘shish (%)		Cohen <i>d</i>	izohlash
		TG	NG		
3D-laboratoriya	To‘g‘ri asosiy turish holatlari (6 tadan)	1,20	0,30	0,74	O‘rtacha samara bergan, Asosiy turish holati barqarorlashgan
	Diogonal sakrash uzunligi o‘rtacha ikki oyoqda (sm)	8,00	3,00	0,79	O‘rtacha samara bergan, kuch o‘sgan
2D - muzda	20 m. ga Start, soniya	0,26	0,07	0,70	O‘rtacha samara bergan, tezlik ortgan
	Samarali qayrilishlar	1,90	0,40	0,76	O‘rtacha samara bergan, koordinatsiya yaxshilangan
VR	Reaksiya vaqti, m/s.	0,35	0,08	0,80	Yuqori samara, Vaziyatni tezroq “o‘qiy olish” ko‘nikmasi rivojlangan
	Qayrilish vaqti VR, soniya	0,19	0,05	0,71	O‘rtacha samara bergan, amaliyotni VR-zaldan haqiqiy muzga ijobiy ko‘chishi

Muzdagi 2D testlarda 20 m start vaqti 0,26 soniyaga qisqarib (NG=0,07 s.; $d=0,70$) o‘rtacha tezlanish vektori yaxshilanganini, samarali qayrilishlar sonining 1,9 taga o‘shishi esa ($d=0,76$) tez-burilish koordinatsiyasining eng yuqori sur‘atda shakllanganini ko‘rsatdi. VR blokida ko‘plab yorug‘lik-stimullar ostida reaksiya vaqti 0,35 ms.ga (NG=0,08 ms.) qisqarib, $d=0,80$ ni berdi-bu vizual-motor qaror qabul qilish tezlashganini va o‘yin vaziyatini “o‘qish” ko‘nikmasini kuchayganini bildiradi; 180° ga tez qayrilish vaqti ham 0,19 soniyaga kamayib ($d=0,71$), VR muhitida o‘zlashtirilgan orqa-oldinga mo‘ljall olish ko‘nikmalari real muzdagi burilish mexanikasiga samarali ko‘chganini ko‘rsatdi. Jacob Cohenning Cohen tasnifiga ko‘ra $d \approx 0,7-0,8$ “o‘rtacha va yuqori amaliy jihatdan ahamiyatli” zonaga to‘g‘ri keladi. Shuning uchun mazkur kombinatsiyalangan texnologik yondashuv yosh xokkeychilarning tayanch barqarorligi, kuch, tezlanish xususiyatlari, burilish koordinatsiyasi va vizual-motor reaksiyasini statistik jihatdan ishonchli ($P < 0,05$) va sport amaliyotida sezilarli darajada yaxshilaydigan samarali vosita sifatida tavsiflanadi, demak, kombinatsiyalangan 3D-tahlil, 2D muz testi va VR muhiti 9-10 yoshli xokkeychilarda barqaror tayanch, kuch, tezlanish, koordinatsiya hamda kognitiv-motor tezlikni bir vaqtning o‘zida yaxshilashga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Tadqiqot davomida olib borilgan ishlarni quyidagi yaxshilanish mexanizmlarini qayd etdi. Keltirilgan natijalar 3 bosqichli (3D-biomexanik, plyometrik va VR-kognitiv) intervensiyaning murakkab, ammo o‘zaro bog‘liq adaptatsion mexanizmlarini ko‘rsatadi.


Aniq biomexanik teskari aloqa. 3D MA tizza, tos burchaklari va gavda egilishini real vaqt rejimida ko‘rsatdi. va ma’lumotlariga ko‘ra, aynan erta vizual

korreksiyalash bolalarda “xatoliklar yo‘lagi”ni qisqartiradi. σ tizza burchagining pasayishi (22%) ushbu mexanizmni tasdiqlaydi. [98; 156-b., 109; 63-70-b.]

Diagonal sakrash orqali neyromushak adaptatsiyasi. diagonal sakrash uzunligining 8% ga o‘shishi va 20 m start tezlanishining sezilarli qisqarishi - Starosta bayon qilgan “cho‘zilish-qisqarish sikli” (stretch shortening cycle) orqali neyromushak quvvatining muz ustidagi birinchi itarilish fazasiga ko‘chishini anglatadi, demak, pliometrik kuch miqdoriy jihatdan tezkor tezlanishga ko‘chirilgan [234; 124-b.].

VR kognitiv jarayonlarni tezlashtiradi. Muller ma’lumotlari bilan taqqoslash, izchil tarzda VR blokida reaksiyaning 0,35 soniyaga tezlashishi va muzdagi qayrilish samaradorligi bilan o‘rta kuchli korrelyatsiya ($r=0,58$) vizual-perseptiv jarayonlarning soddalashtirilgan virtual holatlar orqali jadallashganini, “ko‘rish - harakat” zanjiridagi kechikishlarning qisqarganini ko‘rsatadi [196; 88-91-b.].

Muhitlar sinergiyasi multisensor integratsiya sinergiyasi ham qayd etildi. Biomexanik jihatdan eng barqaror (tizza burchagi $\sigma > 1^\circ$ ga kamaygan) ishtirokchilarda VR muhitidagi “ilon izi” tezligi o‘shishi ikki baravar yuqori bo‘ldi (1,4 km·soat va 0,7 km·soat), bu esa tayanch-harakat sifatlaridagi yaxshilanishlar yuqori darajadagi kognitiv-motor topshiriqlarning o‘zlashtirilishini kuchaytirishini, ya’ni muhitlar o‘rtasida ikkala yo‘nalishli transfer mavjudligini ilmiy asoslaydi.



3-rasm. Tadqiqot ishimizni boshqa shu kabi tadqiqotlar bilan solishtirish tafovuti

Olib borilgan tadqiqot ishini boshqa shu kabi adabiyotlar bilan solishtirish natijasida, Biz qisqa vaqt ichida kichik yosh guruhida taqqoslanganidan ko‘ra yaxshiroq yoki teng natijalarga erishdik, bu esa kompleks yondashuvning samaradorligini ko‘rsatib beradi (3-rasmga qarang).

“Uch qatlamli” tayyorgarlikning yangi formati

3-bob natijalari 3D laboratoriya - muz - VR muhit kombiatsiyasi sinergetik samara berishini ko‘rsatdi. Bu uch qatlamli mashg‘ulot modelini taklif qilish imkonini beradi, bunda:

1. Laboratoriya - texnika: yashirin burchaklar, simmetriya va o‘zgaruvchanlikni qayd etadi;
2. Muz - element bajarilishining “haqiqiy holati”;
3. VR - muz vaqtini sarflamasdan reaksiya va qaror qabul qilishni mashq qiladigan kognitiv harakatli aloqalar “tezlashtiruvchisi”.

Vazifalarning bunday taqsimlanishi birinchi marta 9-10 yoshlilar uchun shakllantirilgan va murabbiyga umumiy soatlarni oshirmasdan yuklamani

moslashuvchan tarzda qayta taqsimlash imkonini beradi.

XULOSALAR

1. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xokkey sportida harakat tayyorgarligini rivojlantirishda sportchining koordinatsiya, muvozanat va tezlik reaksiyasi kabi kompleks ko'rsatkichlarini aniqlash murakkabligi, bu harakatlarning yuqori intensivlik va o'zgaruvchanlikka ega bo'lishi, ularni baholash va aniqlashda olimlar hamda murabbiylar zamonaviy uslub va texnologiyalarga muxtojdir. Mazkur yo'nalishda ilmiy izlanishlar olib borgan mutaxassislarining fikriga ko'ra, 3D texnologiyalar yordamida sportchilarning tayyorgarlik darajasini tizimli aniqlash va tahlil qilish sportchi texnik xatolarini samarali baholash imkonini beradi.

2. Olib borilgan tadqiqot natijalari boshqa ilmiy ishlar bilan solishtirilganda, kompleks yondashuv (3D, 2D, VR) texnologiyalari integratsiyasi natijasida yuqori samaradorlikka erishilganini ko'rsatdi. Masalan, Adams (2019) tomonidan 10-12 yoshli sportchilarda 8 haftalik 3D-mashg'ulotlarning natijasida oldinga sakrash uzunligi 12% ga oshgan bo'lsa, bizning tadqiqotda 9-10 yoshli xokkeychilarda 6 haftalik dastur davomida diagonal sakrash uzunligi 8% ga yaxshilandi. Mullerda (2021) VR-mashg'ulotlarning orqali reaksiyani 0,36 soniyaga qisqartirgan bo'lsa, bizda bu ko'rsatkich 0,35 soniya bo'ldi. Stokes (2020) 2D-muz sharoitida 20 metrga start vaqti 0,26 soniyaga qisqarganini qayd etgan, bizda ham bu ko'rsatkich mos ravishda 0,26 soniyani tashkil etdi.

Mazkur tahlil shuni ko'rsatadiki, murakkablashtirilgan 3D, 2D, VR kombinatsiyasi nafaqat alohida texnologiyalar samaradorligini takrorladi, balki ularni birlashtirish hisobiga start tezligi, diagonal sakrash va reaksiyaga javob berish kabi ko'rsatkichlarda barqaror va kompleks rivojlanishga erishdi. Bu esa turli texnologiyalarni uyg'unlashtirish sportchilarning ko'p qirrali harakat tayyorgarligini rivojlantirishda ancha samarali ekanini ilmiy asoslaydi.

3. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichidagi xokkeychilarning muz ustida asosiy turish texnikasini o'rganish jarayonida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, sportchilarda tayanch holatini qabul qilishda tizzalarning yetarlicha egilmasligi, og'irlik markazining optimal nuqtadan chetga siljishi va to'piq bo'g'imining yetarli bukilmasligi natijasida sirg'alish uzunligi qisqarib qoladi. Harakat vaqtida gavdaning yon tomonlarga tebranishi, qo'l va oyoq harakatlari o'rtasida yetarli darajada sinxronlik bo'lmasligi aniqlangan. 3D texnologiya yordamida burchak ko'rsatkichlarini aniq o'lchash orqali aniqlangan bu kamchiliklar texnikani o'zlashtirish samaradorligiga bevosita ta'sir qilishi, sirg'alish paytidagi tezlik va barqarorlikni pasaytirishi qayd etildi.

4. Qisqa masofaga start olish texnikasini baholash jarayonida 9-10 yoshli xokkeychilarda start chizig'idan chiqish vaqtida gavda va oyoqlar harakati o'rtasida koordinatsiya yetarli emasligi, korpusning boshlang'ich burchaklarida optimal bo'lmagan holatlar kuzatildi. Depsinish fazasida tayanch oyoqdan berilayotgan kuchning yetarli darajada bo'lmasligi va tana massasining noto'g'ri taqsimlanishi natijasida tezlanish sekinlashishi aniqlandi. Shuningdek, 2D tahlil dasturi yordamida qayd etilgan korpus burchaklari va og'irlik markazi ko'rsatkichlari start tezligini

oshirish uchun qayta moslashtirilishi lozimligi belgilandi. Bu holatlar masofani minimal vaqtda bosib o'tish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi qayd etildi.

5. Yo'nalishni o'zgartirish va himoyaviy qayrilish elementlarini bajarish tahlillarida sportchilarda qayrilish radiusining kattalashib ketishi, tormozlash jarayonida tayanch oyoq burchaklarining noto'g'ri tanlanishi va og'irlikning bir tomonlama taqsimlanishi sababli muvozanat buzilishi kuzatildi. Qayrilish paytida gavda va oyoqlar harakati o'rtasida muvofiqlik yetarli darajada bo'lmagani, qo'l harakatlarining sinxron bo'lmashligi aniqlangan. VR-blok va React-Light texnologiyalari yordamida o'tkazilgan mashg'ulotlarda dastlabki bosqichlarda vizual reaksiya tezligi pastligi, qaror qabul qilishda ortiqcha vaqt sarflanishi va harakat trayektoriyasining beqarorligi qayd etildi. Bu holatlar yo'nalishni tez va aniq o'zgartirish samaradorligini kamaytirishi aniqlandi.

6. Diagonal bo'ylab sakrash dinamikasini tahlil qilishda depsinish fazasida oyoq mushaklari kuchi yetarlicha safarbar etilmasligi, sakrash paytida oyoqlar orasidagi masofa optimal holatdan chiqib ketishi va qo'nish paytida gavda barqarorligining pasayishi aniqlangan. Mashg'ulotlarda sportchilarning chaqqonlik va kuch sifatlarini namoyon etishda sustkashlik kuzatilgan, ba'zi hollarda sakrash yo'nalishidan chetga og'ishlar qayd etilgan. Shuningdek, takrorlanishlar soni va dam olish intervallarining optimal bo'lmashligi natijasida mashg'ulot samaradorligi pasayishi aniqlangan. Bu omillar belgilangan masofaga sakrash tezligi va aniqligini oshirish uchun mashqlar mazmuni va yuklama rejimida tuzatishlar kiritishni talab qilishi aniqlandi.

7. 3D MA dasturi orqali asosiy turish holatidagi kamchiliklarni aniqlash va tezkor qayta aloqa orqali korreksiya qilish, shuningdek diagonal bo'yicha sakrash natijalarini maxsus 6-haftalik mashg'ulot dasturi orqali takomillashtirish natijasida tajriba guruhida muzdan tashqarida ishonchli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. Asosiy turish holatida samarali takrorlar soni 3,1-4,3 ga oshib, 39% ni tashkil etdi ($t=4,11$; $P<0,01$). Tizza burchagi $6,0^{\circ}$ - $4,7^{\circ}$ gacha kamayib, 22% yaxshilanish qayd etildi ($t=3,87$; $P<0,01$), bu tayanch burchaklarining optimallashtirishini ko'rsatadi; gavda egilishi $26,6^{\circ}$ dan $28,2^{\circ}$ gacha oshib, 6% lik ijobiy siljish kuzatildi ($t=2,22$; $P<0,05$). Diagonal sakrash natijalari ham sezilarli yaxshilandi: o'ng oyoqda sakrash uzunligi 63-68 sm (8%; $t=4,28$; $P<0,01$), chap oyoqda esa 59-64 sm (8%; $t=4,06$; $P<0,01$) ga oshdi. Nazorat guruhida esa o'zgarishlar minimal bo'lib, statistik ahamiyat kasb etmadi ($P>0,05$). Ushbu natijalar 3D MA dasturidan foydalangan holda tezkor korreksiya va maqsadli mashg'ulot dasturi sportchilarning asosiy turish barqarorligi, biomexanik parametrlar aniqligi hamda depsinish kuchini samarali ravishda oshirganini tasdiqlaydi.

8. Kinovea dasturi va React-Light texnologiyasi yordamida dinamik asosiy turish holatini tahlil qilish va korreksiya qilish, 20 metr ga sirg'alish harakatlarini Kinovea va VR o'yin dasturlari orqali, shuningdek 180° himoyaviy qayrilish texnikasini VR o'yin dasturlari va React-Light vositalari yordamida maxsus ishlab chiqilgan 6-haftalik mashqlar dasturi asosida takomillashtirish natijasida tajriba guruhida ishonchli ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. 1 daqiqadagi samarali ko'rsatkichlar soni 4,5-6,3 ga oshib, 40% ni tashkil etdi ($t=4,22$; $P<0,01$). 20 metr ga sirg'alish vaqti 4,20 soniyadan 3,94 soniyagacha qisqarib, 6,2% yaxshilanish qayd etildi ($t=3,45$;

$P < 0,01$). 180° himoyaviy qayrilish samaradorligi esa 6,2 marotabadan 8,1 marotabagacha oshib, 31% lik sezilarli natija kuzatildi ($t=3,93$; $P < 0,01$). Nazorat guruhida esa o'zgarishlar minimal bo'lib, statistik jihatdan ahamiyatli bo'lmadi ($P > 0,05$). Ushbu natijalar maxsus texnologiyalar va o'quv dasturining kompleks qo'llanilishi sportchilarning dinamik barqarorligi, tezlanish qobiliyati va himoyaviy qayrilish samaradorligini sezilarli darajada oshirganini ilmiy asoslaydi.

AMALIY TAVSIYALAR

Xokkeychilarning musobaqa jarayoni murakkabligi va bajariladigan harakatlarning xususiyatlarini hisobga olgan holda, mashg'ulotlarni muzda va undan tashqarida olib borish, sportchilarni har tomonlama mutanosib tayyorlashga qaratilgan vosita va usullarni tatbiq qilishning samara berishi tajriba yo'li orqali isbotlandi. Quyida harakat tayyorgarligini rivojlantirishga qaratilgan tavsiyalar keltirilgan.

1. Xokkeychilarning maxsus harakat ko'nikmalarini rivojlantirishda 3D texnologiyalar orqali harakatlar monitoringi va tahlilini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi. Jumladan, "Motion Capture" va "Dartfish" kabi tizimlardan foydalanish sportchilarning individual biomexanik harakat ko'rsatkichlarini aniq qayd etish va xatoliklarni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv murabbiylarga mashg'ulot strategiyasini yangilash va sportchining tayyorgarlik dinamikasini doimiy nazoratda ushlab turish imkoniyatini beradi.

2. O'quv-mashq jarayonlariga yuqori darajadagi immersiv (virtual haqiqat) texnologiyalarni, masalan, "VR Hockey Coach" yoki "Xsens" tizimlarini qo'llash tavsiya etiladi. Bu vositalar yordamida real o'yin holatlarini imitatsiyalash orqali sportchilar muvozanat, reaksiya va qaror qabul qilish qobiliyatlarini real vaziyatga yaqin holatda mashq qilishlari mumkin. Ayniqsa, musobaqa sharoitiga yaqinlashtirilgan vizual-motor mashqlar bosim muhitida to'g'ri harakat qilish reflekslarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

3. Har bir sportchining yillik tayyorgarlik rejasi 3D tahlillari asosida individual tuzilishi, mashg'ulot yuklamalari esa harakat ko'rsatkichlari va dinamik o'zgarishlarga qarab moslashtirilgan holda ishlab chiqilishi tavsiya etiladi. Mashg'ulot ma'lumotlarini raqamli tarzda qayd etuvchi ilovalar (masalan, "Kinovea" yoki "Mobil sports analytics" ilovalari) sportchining o'z natijalari ustida muntazam ishlashiga sharoit yaratadi. Bu uslub mashg'ulot samaradorligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

4. Xokkeychilarning reaksiya va qaror qabul qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarda reaksiya datchiklari, sensorli qayta javob qurilmalari va raqamli signal mashqlari asosida ishlovchi vositalardan foydalanish tavsiya etiladi. Ular real o'yin holatidagi impulsiv va tezkor harakatlar takrorlanishiga yordam beradi. Harakatni nazorat qilish, o'yin tezligini boshqarish va xatolarga qarshi avtomatlashgan harakatlarni shakllanishi orqali sportchining maydondagi samaradorligi ortadi.

5. Muzda mashq qilish imkoniyati cheklangan sharoitlarda virtual sport zallari va simulyatsion platformalardan foydalanish ayniqsa muhimdir. "VR Hockey Coach"

kabi trenajyorlar sportchilarga murakkab muvozanat, burilish va tormozlanish harakatlarini xavfsiz, lekin realistik muhitda o'rganishga yordam beradi. Bu vositalar sportchilarning mushak xotirasini shakllantirishda va ularning harakat reflekslarini avtomatlashtirishda katta ahamiyatga ega.

6. Jismoniy tayyorgarlikni rivojlantirishda mushak kuchi va chidamliligini baholovchi raqamli texnologiyalar - masalan, "Force Plate" (kuch platformasi), "Jump Mat", va "Lactate Analyzer" - mashg'ulot jarayoniga tadbiq etilishi tavsiya etiladi. Bu usullar sportchilarning holatiga real va ob'ektiv baho berish, ularning tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha yuklamalarni ilmiy asosda tuzish imkonini beradi. Bu esa ortiqcha yuklama, shikastlanish xavfi yoki sportchining reabilitatsiya holatini bashorat qilishda murabbiy uchun kuchli tahlil vositasi bo'lib xizmat qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

**НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИЙ ИНСТИТУТ ФИЗИЧЕСКОЙ
КУЛЬТУРЫ И СПОРТА**

ХОЖИЕВ ШОХРУХ САИДЖАПАР УГЛИ

**МЕТОДИКА ПРИМЕНЕНИЯ 3D ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ
ДВИГАТЕЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ХОККЕИСТОВ**

**13.00.04 - Теория и методика физического воспитания, спортивной тренировки,
оздоровительной и адаптивной физической культуры**

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Чирчик - 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2023.1.PhD/Ped4645

Докторская диссертация выполнена при Научно-исследовательский институт физической культуры и спорта.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещен на веб-сайте по адресу (www.jtsu.uz) и информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу (www.ziyo.net.)

Научный руководитель: **Тажибаев Сойиб Самижонович**
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Официальные оппоненты: **Ярашев Комилжан Дехканович**
доктор педагогических наук (DSc), профессор

Акрамов Жасур Анварович
кандидат педагогических наук, профессор

Ведущая организация: **Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека**

Защита диссертации состоится на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Ped.28.01 при Узбекском государственном университете физической культуры и спорта «___» «___» 2025 г. в ___ часов. (Адрес: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Спортчилар, 19. Тел.: (0-370) -717-17- 79, 717-27-27, факс: (0-370) -717-17-76, веб-сайт: www.jtsu.uz, e-mail: info@jtsu.uz. Узбекский государственный университет физической культуры и спорта, здание E, 3 этаж, аудитория 309).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета физической культуры и спорта (зарегистрирована под № _____). (Адрес: 111709, Ташкентская область, г. Чирчик, ул. Металлурглар, 15). Тел.: (0-370) -717-17-79, факс:(0-370) -717-17-76).

Автореферат диссертации разослан “ _____ ” _____ 2025 г.
(реестр протокола рассылки № _____ от “ _____ ” _____ 2025 г.)

Р.М.Маткаримов
Председатель научного совета по присуждению научных степеней, д.п.н. (DSc), профессор

М.А.Ибрагимов
Учёный секретарь научного совета по присуждению научных степеней, д.ф.п.н. (PhD), профессор

А.Н.Шопулатов
Председатель научного семинара при научном совете по присуждению научных степеней, д.п.н. (DSc), профессор

Введение (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Сегодня во многих странах мира хоккей признан не только профессиональным видом спорта, но и популярным среди широкой публики средством отдыха. Крупные соревнования, организуемые Международной федерацией хоккея, в частности Чемпионат мира и региональные первенства по хоккею, определяют престиж этого вида спорта. В последние годы новые технологии в хоккее, тренировочные системы на основе виртуальной реальности (VR), системы 3D-камеры анализа движений, а также современные сенсорные устройства, формирующие скорость, реакцию и технику, выводят подготовку хоккеистов на новый уровень. Во многих странах разработаны специальные национальные программы, направленные на развитие хоккея, и рост этой отрасли объясняется технологическими инновациями, расширением спортивной инфраструктуры, трансляциями через средства массовой информации и высоким интересом молодого поколения. Эффективная организация тренировочного процесса юных хоккеистов, занимающихся в спортивных школах и академиях, повышение уровня их физической и технической подготовки остается одним из приоритетных направлений в данной сфере спорта.

Мировой опыт показывает, что эффективное использование современных технологий в укреплении технической подготовки хоккеистов приобретает все большее значение. Организация тренировок исходя из индивидуальности спортсмена, регулярная оценка и мониторинг результатов сегодня становятся основными направлениями научных исследований, проводимых в таких областях науки, как спортивная биомеханика и психология. В частности, исследования, проводимые в области спортивной биомеханики, служат углубленному анализу и совершенствованию техники передвижения хоккеистов по льду. С помощью портативного оборудования, такого как 3D-камеры анализа движений и инерционные сенсорные устройства, оценивается точность и эффективность движений спортсмена. В настоящее время возникает необходимость разработки научно обоснованной методики развития двигательной подготовленности юных хоккеистов на этапе начальной подготовки и системного совершенствования тренировок, направленных на формирование основных двигательных элементов.

